

Quramboyev Alisher Maxsudovich,
Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti
tayanch doktoranti
Email: quramboyevalisher@mail.ru



O'ZBEKISTONDA IJTIMOY HIMOYA: TARAQQIYOT, TAMOYILLAR VA ISLOHOTLAR

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda mustaqillik yillarida shakllangan ijtimoiy himoya tizimi, uning asosiy tamoyillari va yo'nalishlari yoritilgan. Aholining kam ta'minlangan qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, oilani mustahkamlash, ijtimoiy adolat tamoyillarini amalga oshirishda davlat siyosatining roli tahlil qilingan. Bundan tashqari, ijtimoiy himoyaning nafaqat iqtisodiy, balki huquqiy va falsafiy ahamiyati ham ochib berilgan. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida inson qadri va ijtimoiy adolat ustuvorligi alohida o'rin egallashi ko'rsatilgan.

Аннотация. В данной статье освещаются система социальной защиты, сформировавшаяся в Узбекистане за годы независимости, ее основные принципы и направления. Проанализирована роль государственной политики в поддержке малообеспеченных слоев населения, укреплении семьи, реализации принципов социальной справедливости. Кроме того, раскрывается не только экономическое, но и правовое и философское значение социальной защиты. В новой стратегии развития Узбекистана особое место будет занимать приоритет человеческого достоинства и социальной справедливости.

Annotation. This article covers the social protection system formed in Uzbekistan during the years of independence, its main principles and directions. The role of state policy in the implementation of the principles of support of underprivileged segments of the population, strengthening the family, social justice has been analyzed. In addition, not only the economic, but also the legal and philosophical importance of social protection is revealed. A special place in the new Uzbekistan development strategy is given to the priority of human dignity and social justice.

Tayanch soʻzlar: *ijtimoiy himoya, kam taʼminlangan oilalar, ijtimoiy adolat, davlat siyosati, Yangi Oʻzbekiston, ijtimoiy islohotlar, oilaning roli, inson qadri.*

Ключевые слова: *социальная защита, малообеспеченные семьи, социальная справедливость, государственная политика, новый Узбекистан, социальные реформы, роль семьи, человеческое достоинство.*

Keywords: *social protection, low-income families, Social Justice, Public Policy, New Uzbekistan, social reform, the role of the family, human dignity.*

Kirish. Mustqillikning dastlabki kunlaridayoq davlatimiz uchun ijtimoiy siyosat davr taqozosi ekanligi maʼlum edi. Mamlakatimizda oʻtkazilgan barcha islohotlar zahirida insonga eʼtibor berish, uning uchun farovon hayotni taʼminlash va munosib turmush sharoitlarini yaratish tashkil etdi, desak xato boʻlmaydi. Istiqlolning dastlabki iqtisodiy tanglik yillarida odamlarning turmush darajasini normaga keltirish maqsadida davlat koʻpdan koʻp usullardan foydalandi. Jumladan, miqdori doimo oshib boradigan ish haqi, stipendiya, pensiya, nafaqa toʻlovlari va boshqa turli imtiyozlar joriy qilinib kelindi. Bu jarayonda islohotlarning markazidagi aholining kam taʼminlangan tabaqalari, bolalar, yoshlar huquq va manfaatlarini ularning bilim olishi, kasb-hunar egallashi, malakali tibbiy xizmatdan foydalanish kabi har tomonlama yordam berish masalalari davlatning asosiy burchi sifatida qaraldi. Mustaqillik yillarida aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi shakllandi. Aholini ijtimoiy himoyalash, kam taʼminlangan oilalarni moddiy jihatdan qoʻllab-quvvatlash konsepsiyasi mustaqillikning dastlabki yillaridanoq amalga oshirila boshlangan. Shu oʻrinda birinchi Prezidentimizning "Oʻzbekistonning oʻz yangilanish va taraqqiyot yoʻliga asos boʻlgan eng muhim qoidalaridan biri bozor iqtisodiyotiga oʻtishning barcha bosqichlarida oldindan kuchli ijtimoiy siyosatini oʻtkazishdir. Qolgan barcha qoidalar ijtimoiy vazifalarni hal etishga, aholini ijtimoiy himoya sohasida qatʼiy kafolatni vujudga keltirishga boʻysundirilgan"[1], degan fikrlarini esga olish mavzuning naqadar dolzarbligini koʻrsatadi. Ijtimoiy himoya kam taʼminlangan aholi qatlami turmush faoliyati oqsayotgan yoʻnalishlarini qoʻllab-quvvatlash maqsadida davlat tomonidan muntazam amalga oshiriladigan ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy chora-tadbirlar majmuyidir [2]. Ijtimoiy himoya ham ijtimoiy, ham falsafiy, ham iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. Ijtimoiy himoya – keng maʼnoda mamlakat aholisini ijtimoiy va moddiy muhofaza qilishni taʼminlaydigan va jamiyatda qaror topgan huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy chora-tadbirlar majmuyi; tor maʼnoda davlat va jamiyatning yoshi, salomatligi holati, ijtimoiy ahvoli, tirikchilik vositalari bilan yetarli taʼminlanmagani tufayli yordamga, koʻmakka muhtoj fuqarolar

tog'risidagi g'amxo'rliги [3]. Aholining ijtimoiy ta'minoti ijtimoiy himoyaning muhim tarmog'idir. Ijtimoiy jihatdan rivojlangan davlat ideal davlatda, ijtimoiy qatlamlarning turmush darajasida farq unchalik sezilmaydi. Ijtimoiy himoya munosabatlarining muhim va ajralmas sohasi aholini ish bilan ta'minlashdir. Ishsizlik ishga bo'lgan talabning qondirilmay qolishidir. Ijtimoiy himoya ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy barqarorlikning garovidir. Ijtimoiy himoya bu odamalarni nafaqat moddiy jihatdan qo'llash, balki uning zahirida insonparvarlik, adolat g'oyalari mujassam. Taraqqiyotimizning oxirgi o'n yilligida har bir kelayotgan yilni ma'lum bir nom bilan nomlash odat tusiga kirdi. Bu nomlarning deyarli barchasi aholini ijtimoiy himoyalashga taalluqli bo'lib, shu asosda yaxlit ijtimoiy himoya siyosati har yili aholining ma'lum bir tabaqasiga qaratilgan holda amalga oshirilib kelinyapti. Bu nomlarga mos keluvchi davlat dasturlari tayyorlanib kelinmoqda. Ijtimoiy himoya umumdavlat ahamiyatiga ega bo'lgan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hodisa bo'lib, bu yo'nalishda qonun ijodkorligini faollashtirish lozim.

Maqsad va uni asoslash. Bugungi kunda ham davlat bosh islohotchilik mas'uliyatini o'z zimmasiga olmoqda. Muhtoj aholi qatlamlarini ijtimoiy himoyalash obyektiv zaruratdir. Ijtimoiy muhofaza siyosati Sharqning alohida xususiyatlaridan biri hisoblanib, o'zbek xalqining bir-biriga mehr-muruvvati, oqibati, qarindoshchiligining uzviyligi, bir-birining holidan xabar olishi, bemor va muhtojlarga beg'araz yordam berishi kabi urf-odatlar va boshqa milliy qadriyatlar kuchli ijtimoiy siyosatning manbayi bo'lib xizmat qiladi.[4] O'zbekistonda norasmiy ijtimoiy yordam turlari ham mavjud bo'lib, ularga: yaqinlar, yor-birodlarning o'zaro bir-biriga yordami, diniy va milliy urf-odatlarimiz asosida yordam, korxona, tashkilot, muassasalarning kam ta'minlanganlarga, nafaqaxo'rlarga va beva-bechoralarga yordam puli berishlari kiradi. Bizning bu fikrimiz quyidagi fikrlar bilan hamohangdir: "Fuqarolar turmush farovonligi va barqarorligini ta'minlashda jamiyat to'rt asosiy sektorga tayanishi muhimdir. Bular: ijtimoiy (davlat), xususiy, erkin va norasmiy. Ijtimoiy sektor davlat tomonidan tomonidan ta'minlanadigan xizmat turlaridan tashkil topadi. Xususiy sektor esa tijorat orqali xizmat ko'rsatadi. Nihoyat, norasmiy sektor do'stlar, qo'ni-qo'shnilar va oilalar yoki ko'pincha oiladagi yetakchilar tarafidan amalga oshiriladi.[5]

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi. Bozor iqtisodiyotiga o'tishda, jamiyatni tubdan o'zgartirishda oilaning tub manfaatlarini ko'zlab, eng muhim yo'nalishlarni davlatning o'zi tanlab, ularni amalga oshirish uchun o'zi yetakchilik qilmoqda. Har qanday ijtimoiy adolatli jamiyat va davlatning o'lchov mezonlari jamiyatning eng nochor ijtimoiy

Bugungi kunda ham davlat bosh islohotchilik mas'uliyatini o'z zimmasiga olyapti. Muhtoj aholi qatlamlarini davlat yo'li bilan ijtimoiy himoyalash obyektiv zaruratdir.

***Oila turmush va
vijdon qoidalari
asosida quriladi.
U o‘zining ko‘p
asrlik mustahkam
manaviy
tayanchlariga
ega. O‘zbek oilasi
mustabidlik
davrida ham
o‘zining tarixiy
shakllangan
qiyofasini
yo‘qotmadi.
Demokratik
negizlarga asos
solish ham,
aslida, oiladan
boshlanadi.
Insonlarning
qadriyatlari, talab
va ehtiyojlari
oilada shakllanadi.
Shu uchun ham
davlatimizni
katta bir oila deb
tushunishimiz
lozim.***

tabaqalariga munosabatlari bilan belgilanadi. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat barpo etilayotgan hozirgi davrda davlat va jamiyat oilani o‘z panohiga olmog‘i lozim. Bundan har bir oilaning “ko‘ngli” tinch bo‘lishi lozim. Xotirjam oilagina unumli mehant qila oladi. Davlat halol mehnat uchun ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy shart-sharoitlarni ta‘minlab bermog‘i lozim. Kuchli ijtimoiy siyosat adolatli jamiyat barpo etishning asosiy mezonidir. Ijtimoiy adolat prinsipining amal qilishi, avvalambor, oiladan boshlanadi. Chunki oila jamiyatning bir bo‘lagi, yurt boyligi, tayanchi, kichik bir vatan, jamiyatning negizi, mehr-muhabbat ifodasi va ramzidir. Oila – jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichlarida vujudga kelgan ijtimoiy hodisa bo‘lib, u muayyan ijtimoiy munosabatlarni o‘zida aks ettiradi. Oila turmush va vijdon qoidalari asosida quriladi. U o‘zining ko‘p asrlik mustahkam manaviy tayanchlariga ega. O‘zbek oilasi mustabidlik davrida ham o‘zining tarixiy shakllangan qiyofasini yo‘qotmadi. Demokratik negizlarga asos solish ham, aslida, oiladan boshlanadi. Insonlarning qadriyatlari, talab va ehtiyojlari oilada shakllanadi. Shuning uchun ham davlatimizni katta bir oila deb tushunishimiz lozim. Bu esa bizni shu katta oilaning mehnatkash, inoq farzandlari bo‘lishimizni taqozo etadi. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan davlat barpo etilayotgan bir paytda fuqarolardan o‘z oilasini mustahkamlash, uning har bir a‘zosini sodiq, halol farzand qilib tarbiyalash juda muhim vazifadir. Inson huquq, erkinlilari va manfaatlarini ta‘minlashda hamda muhofaza qilishda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasidagi ushbu moddalari alohida rol o‘ynaydi. Ayniqsa, 16-moddasining 3-bandida “Oila jamiyatning tabiiy va asosiy hujayrasi sanaladi hamda jamiyat va davlat tomonidan himoya qilinishga haqli.” Har bir inson jamiyat a‘zosi sifatida milliy kuch-harakatlar hamda xalqaro hamkorlik vositasida va har bir davlatning tuzilishi, shuningdek, resurslariga muvofiq ijtimoiy ta‘minotga va o‘zining qadr-qimmatini saqlash, shaxsining erkin rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalaridagi huquqini amalga oshirishga haqli (2-moddasida). Har bir inson mehnat qilish, ishni erkin tanlash, adolatli va qulay ish sharoitiga ega bo‘lish va ishsizlikdan himoya qilinish huquqiga ega. Har bir inson hech bir kamsitishsiz teng mehnat uchun teng haq olish huquqiga ega. Har bir ishlovchi kishi o‘zi va oilasi uchun insonga munosib yashashni ta‘minlaydigan adolatli va qoniqarli daromad olishga, zarur bo‘lganda ijtimoiy ta‘minotning boshqa vositalari bilan to‘ldiriluvchi daromad olish huquqiga ega. Har bir inson kasaba uyushmalari tuzish va o‘z manfaatlarini himoya qilish uchun kasaba uyushmalariga kirish huquqiga ega (23-modda). Har bir inson

o'zining hamda oilasining salomatligi va farovonligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan turmush darajasiga ega bo'lish, jumladan, kiyim-kechak, oziq-ovqat, tibbiy xizmat va zarur ijtimoiy xizmatga ega bo'lishga hamda ishsizlik, kasallik, nogironlik, bevalik, qarilik yoki unga bog'liq bo'lmagan sharoitlarga ko'ra tirikchilik uchun mablag' bo'lmay qolgan boshqa hollarda ta'minlanish huquqiga ega. Onalik va bolalik alohida g'amxo'rlik va yordam huquqini beradi. Barcha bolalar, nikohda yoki nikohsiz tug'ilishidan qat'i nazar, bir xil ijtimoiy himoyadan foydalanishi kerakligi (25-modda) [6] haqidagi moddalarida ijtimoiy himoyaga alohida e'tibor qaratilgan. Bugungi yangilanayotgan O'zbekistonda ham ijtimoiy himoya islohotlarning bosh bo'g'ini sifatida qaralyapti. "Yangi O'zbekistonni o'z hayotidan rozi, baxtli insonlar mamlakatiga, har tomonlama rivojlangan ijtimoiy makonga aylantirish ushbu yo'nalishdagi islohotlarimizning asosiy maqsadidir" [7] deydi davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev. Jamiyat ustqurmasining asosiy elementi hisoblangan davlatning asosiy mohiyati insonning munosib yashashini ta'minlashdir. Insonning munosib yashashi deganda, insonning yashash xarajatlarini (oziq-ovqat, kiyim-kechak va b.) qoplash, shuningdek, talim olish, sog'liqni saqlash, dam olish va b. ehtiyojlarini qondirish imkoniyatiga ega bo'lishi tushuniladi [8]. Asosiy qonunimizda mustahkamlanganidek, O'zbekiston yangi tahrirdagi konstitutsiyaga muvofiq ijtimoiy davlat, deb e'lon qilindi va davlatning ijtimoiy majburiyatlari 3 barobar ko'paytirildi. Barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili dini, ijtimoiy kelib chiqishi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar qonun oldida tengdirlar. Demak, O'zbekiston ijtimoiy adolat tamoyili borasida faol islohotlar olib bormoqda. Mamlakatimizda, birinchi navbatda, inson qadri barcha narsadan ustun ekanligini asosiy qonunimizga kiritadi va huquqiy normalar asosida mustahkamlab qo'yildi.

Yakuniy qism. O'zbekistonda mustaqillik yillarida yaratilgan ijtimoiy himoya tizimi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Ushbu tizim aholining kam ta'minlangan qatlamlari, bolalar va yoshlarni qo'llab-quvvatlash, oilani mustahkamlash, inson huquq va erkinliklarini ta'minlash kabi dolzarb masalalarni hal qilishga qaratilgan. Ijtimoiy himoya tizimining samaradorligi davlatning adolatli va barqaror jamiyat barpo etishdagi intilishlari bilan bog'liq. Bugungi kunda "Yangi O'zbekiston" konsepsiyasi doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar ijtimoiy adolat va inson qadri ustuvorligini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Aholini ijtimoiy himoya qilish borasidagi siyosatning huquqiy bazasi kuchaytirilib, fuqarolarning munosib turmush sharoitlarini

Onalik va bolalik alohida g'amxurlik va yordam huquqini beradi. Barcha bolalar, nikohda yoki nikohsiz tug'ilishidan qat'i nazar, bir xil ijtimoiy himoyadan foydalanishi kerakligi (25-modda)

ta'minlash uchun yangi mexanizmlar joriy etilmoqda. Kelgusida jamiyatning barcha qatlamlarini qamrab oluvchi, insonparvarlik va adolat tamoyillariga asoslangan ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish mamlakatning barqaror rivojlanishi va farovonligining muhim kafolati bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. *O'zbekiston buyuk kelajak sari*. – T.: O'zbekiston, 1998. 127-bet.
2. Ismoilov B. *O'zbekiston ijtimoiy himoya siyosatining tashkiliy-huquqiy asoslari. Monografiya*. T.: TDYU nashriyoti, 2021. – B. 23-23.
3. *O'zbek tilining izohli lug'ati*. – Toshkent. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi til va adabiyot instituti. *O'zbekiston milliy ensiklopediyasi*". Davlat ilmiy nashriyoti. – B. 69-70.
4. Mo'minova. G. *Ijtimoiy himoya – davlat siyosatining bosh yo'nalishi*. Qarshi. "Nasaf" nashriyoti. 2007. – B. 6.
5. Mamatqobilov T. D. *Mustaqil O'zbekistonning ijtimoiy himoya siyosati: genezisi, evolyutsiyasi va amaliyoti. Siyosiy. Fan. Dokt. duc. asmoqef*. – Toshkent : Abu Rayhon Beruniy nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti, 2006. – B. 21.
6. <https://constitution.uz/oz/pages/humanrights>
7. Shavkat Mirziyoyev. *Yangi O'zbekiston strategiyasi*. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. – B. 199.
8. X.N., Safarova, D.A., Anvarova. *Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlar: o'quv qo'llanma*. T.: TDYU nashriyoti, 2023. – B. 31.